

SHAXS OG‘ISHGAN XULQINING KO‘RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO‘RINISHLARI

Ikromova Sitora Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti assistenti

E-mail: sitorapsixolog@oxu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxs og‘ishgan xulqining ko‘rinishlari tavsifi, og‘ishgan xulqning salbiy oqibatlarini va ijtimoiy me‘yor ko‘rinishlari kabi yetakchi mezonlar ochib berishga harakat qilingan. Shaxsning buzg‘unchi xulq-atvorining nazariy jihatlarini ko‘rib chiqish amalga oshirildi. Yovuzlikning tabiati haqidagi nazariyalar, S.P. Ivanov, Z. Freyd, V.V. Boyko va Erich Fromm kabi faylasuflar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ekstremizmning ijtimoiy-psixologik omillari yoritilgan, o‘quvchining ekstremistik va terroristik tashkilotga a‘zo bo‘lish belgilari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Destruktiv xulq-atvor, ekstremizm, ekstremizmning psixoprofilaktikasi ekstremizmning ijtimoiy-psixologik omillari, deviant xulq-atvor.

ABSTRACT

In this article, an attempt was made to reveal the leading criteria, such as the description of the manifestations of deviant behavior, the negative consequences of deviant behavior, and the manifestations of social norms. A review of the theoretical aspects of disruptive personality behavior was carried out. Theories about the nature of evil, S.P. Ivanov, Z. Freud, V.V. Considered by philosophers such as Boyko and Erich Fromm. The socio-psychological factors of extremism are highlighted, the signs of a student’s membership in an extremist and terrorist organization are described.

Key words: Destructive behavior, extremism, psychoprophylaxis of extremism, socio-psychological factors of extremism, deviant behavior.

Ma’lumki, maxsus adabiyotlarda “og‘ishgan xulq” atamasi ko‘pincha deviant axloq (deviatio - lotin tilida og‘ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o‘zaro bir-birining o‘rnini to‘ldiruvchi sifatida har ikkala atamani qo‘llaymiz - “og‘ishgan”, “deviant”, bunda birinchi atama aniq va o‘rganilgan bo‘lgani sababli afzal ko‘riladi. O‘rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko‘rinib turgan murakkabligiga hammadan avval uning fanlararo xarakteri sababdir. Hozirgi vaqtda bu tushuncha ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq “rasman o‘natilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me‘yorlarga mos kelmaydigan munosabat, inson

harakati” ma’nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. “Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllariga nisbatan ifodalalanuvchi va rasman o’rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo’lgan me’yorlar va qarashlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko’rinish” ma’nosida sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Og’ishgan xulqni birinchi aspektidagi afzalligi - individual faollikning ko’rinishi sifatida ko’rib chiqamiz. Shaxsning og’ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zaruratida yordam bersin: 1. Shaxsning og’ishgan xulqi - bu umumqabul qilingan yoki rasman o’rnatilgan ijtimoiy me’yorlarga mos tushmaydigan axloq. Boshqacha aytganda, bu harakat mavjud qonunlar, qoidalar, an’analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydigan harakatlardir. Deviant axloqni me’yordan og’ishgan axloq sifatida baholashda ijtimoiy me’yorlar o’zgarishini inobatga olish lozim. 2. Shaxs va deviant axloq, uning namoyon bo’lishi boshqa odamlar tomonidan salbiy baholanadi. Salbiy baho jamoatchilik muhokamasi yoki ijtimoiy sanksiya, shu jumladan, jinoiy jazo shakliga ega bo’lishi mumkin. Dastavval, sanksiyalar istalmagan axloqning oldini olish vazifasini bajaradi. Biroq, boshqa tomondan ular shaxs stigmatizatsiyasi — unga tamg’a osish kabi salbiy ko’rinishga olib keladi. Masalan, jazo muddatini o’tab, “me’yoriy” hayotga qaytgan odamning moslashuvdagi qiyinchiliklari yaxshi ma’lum. Insonning yangi hayot boshlashga intilishi ko’pincha atrofdagi odamlarning ishonmasligi va ularni rad etishi natijasida barbod bo’ladi. Deviant (giyohvand, jinoyatchi, olz-o’zini o’ldiruvchi va h.k.) tamg’asi sekin-asta deviant tenglikni (o’z-o’zini his qilish) shakllantiradi. Shunday qilib, axmoqona shuhrat xavfli yakkalanishni kuchaytiradi, ijobiy o’zgarishlarga to’sqinlik qiladi va deviant axloqning takrorlanishini chaqiradi. 3. Og’ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o’zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda hayot sifatini pasaytirgan holda real zarar keltirishi hisoblanadi. Bu mavjud tartibning noturg’unligi, ma’naviy va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo’rlik va dard-alam yetkazish, sog’ligining yomonlashishi bo’lishi mumkin. Deviant axloq o’zining eng so’nggi ko’rinishlarida hayot uchun bevosita xavf tug’diradi, masalan, suitsidal axloq, zo’ravonlik jinoyatlari, “og’ir” giyohvand moddalar iste’mol qilish kabilar. Zararning psixologik namoyon bo’lishi o’sha odamning o’zi yoki uning atrofidagilarning aziyat chekishidir

Insondagi destruktiv xulq tabiati hozirga qadar psixologiya fanida hali yaxshi o’rganilmagan muammolardan biri sanaladi. Bu muammo 20-asrning o’rtalarida shakllangan. Psixologik yondashuv shaxsning og’ishgan xulqidagi alohida ko’rinishlarini ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida quriladi:

- buzilgan me'yor turi;
- axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
- ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
- axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.

Shuni ta'kidlash zarurki, "og'ishgan xulq" atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa 9 yoshdan keyin qo'llashimiz mumkin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqi yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Og'ishgan (deviant) xulqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin - bu shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'uvchi, jamiyat yoki uning o'ziga real zarar yetkazuvchi, shuningdek, uning ijtimoiy moslashmaganligi bilan birga boruvchi turg'un axloqidir.

Destruktiv xulq 2 ta asosiy turlarda namoyon bo'ladi:

1. Delinkvent tur - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy huquqiy me'yorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti - harakatlarga xulqning yo'nalganligidir.

2. Deviant tur - jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga qarama — qarshi xulqiy ko'rinishlarni namoyon etish. Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin.

Z. Freyd inson xulqida 2 ta asosiy instinkt borligini ta'kidlaydi: Eros - bu hayot ishtinktidir. Undagi quvvat, hayotni saqlash, qayta tiklashga yo'naltiradi. Tanatos – o'lim instinktidir. Undagi quvvat hayotni vayron qilish va to'xtatishga yo'naltiradi. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o'rnini va xulqini belgilaydi. Destruktiv xulq ko'rinishlarini namoyon bo'lishida negativ ustanovkalar - shaxsning atrofdigilarning aksariga nisbatan salbiy munosabatlari natijasida shakllanadi S.P. Ivanov va V.V. Boyko tadqiqotlarida destruktiv ustanovkalarining quyidagi turlari ajratiladi:

1. Atrofdagilarga nisbatan fikrlari va hatti-harakatlarida yashirin beshavqatlilik;
2. Atrofdagilarga nisbatan ochiq beshavqatlilik;

3. Insonlar haqida asoslangan negativ fikrlar. Ma'lum bir ijtimoiy vaziyatlarda yuzaga kelgan holatlar asosida unga sababchi bo'lgan insonlar to'g'risida salbiy fikrga ega bo'lish ham shunday;

4. Negativ faktorlar yuzasidan o'zining sheriklari haqida aylanmagan umumlashtirishlar qilish;

5. Atrofdagilar bilan munosabtlar jarayonida negativ tajribaga ega bo'lish Kleyberg Yu. A va A. Ellislar destruktiv xulq ko'rinshlarini shakllanishida "irratsional ustanovkalar" tushunchasini kiritganlar.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir. Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrofmuhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va hokazolar — bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi.

Fromm shunday fikrga keladi: Gumanistik qarash insonni butkul agressiyadan chiqaruvchi tizimdir deydi. Shundan so'ng Z.Freyd o'zining "Tahribotlik (Destruktivnost)"ni taqdim etadi, biroq bu konsepsiya ko'pchilik olimlar tomonidan Freyd "Destruktiv nazariyasi" bo'lib o'rganilmadi. Ba'zi olimlar esa "Destruktivlikni" umuman "Metapsixologik spekulyatsiya" deb qaraydilar. Boshqa olimlar tomonidan esa bu nazariya tanqidga uchraydi.

Jamiyatda insonlar faoliyati, hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'orning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. L.Ya. Olimov, A.M. Nazarov «Tafakkur avlodi», 2020
2. B.M. Umarov Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o'rni. //uslubiy qo'llanma. – T. – 2008, 86-bet.
3. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 390-394.
4. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.

5. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1009-1014.
6. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O‘RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.
7. Sayfiyev, H., & Saidova, M. (2023). EFFECTS OF GYMNASTICS ON FUNDAMENTAL MOTOR SKILLS (FMS), POSTURAL (BALANCE) CONTROL, AND SELF-PERCEPTION DURING GYMNASTICS TRAINING. *Modern Science and Research*, 2(9), 204-210.
8. Xayrullayevich, S. H., & Ayubovna, S. M. (2023). BADMINTONCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(18), 201-208.
9. Ayubovna, S. M., & Xayrullayevich, S. H. (2023). YOSH BOLLALARDA SPORT SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O‘LCHOVLAR NAZARIYASI VA TASHKILIY–METODIK ASOSLARINI TADQIQ ETISHNING MAQSADI, VAZIFALARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 108-118.
10. Xayrulloevich, S. H. (2023). SPORT GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARIDA ASOSIY HARAKAT QOBILYAT (FMS), POSTURAL (MUVOZANAT) NAZORAT VA O‘ZINI O‘ZI IDROK ETISHGA SPORT GIMNASTIKASINING TA‘SIRI
11. Sayfiyev, H., & Saidova, M. (2023). EFFECTS OF GYMNASTICS ON FUNDAMENTAL MOTOR SKILLS (FMS), POSTURAL (BALANCE) CONTROL, AND SELF-PERCEPTION DURING GYMNASTICS TRAINING. *Modern Science and Research*, 2(9), 204-210.
12. Sirojev, S., Nuriddinov, A., & Sayfiyev, H. (2023). THE CONCEPT AND IMPORTANCE OF SHOOTING SPEED IN VOLLEYBALL. *Modern Science and Research*, 2(9), 187-191.
13. Сайфиев, Х., & Саидова, М. (2023). БАДМИНТОНИСТЫ ФИЗИЧЕСКИЙ ПОДГОТОВКА И ЕМУ РАЗРАБОТКА МЕТОДЫ. *Инновационные исследования в науке*, 2(4), 45-54.
14. Xayrullayevich, S. H., & Ayubovna, S. M. (2023). BADMINTONCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(18), 201-208.
15. Ayubovna, S. M., & Xayrullayevich, S. H. (2023). YOSH BOLLALARDA SPORT SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O‘LCHOVLAR NAZARIYASI VA TASHKILIY–METODIK ASOSLARINI TADQIQ ETISHNING MAQSADI, VAZIFALARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 108-118.